



Received: July 3, 2024  
Accepted: September 22, 2024  
Available online: September 25, 2024

## Dilobar Abduxalilova

Tayanch doktorant  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O‘zbekiston

### ADEKVATLIK VA EKVALENTLIK MASALALARI: GYOTE SHE’RIYATIDA TARJIMA MUAMMOLARI

#### ANNOTATSIYA

Tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik muammosi tadqiqotchilarning diqqat markazida turgan masalalardan hisoblanadi. Gyote asarlari bugunga qadar ko‘plab mutarjimlar tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Shoir she‘rlarining o‘zbek tiliga tarjimasi masalalari bo‘yicha m qiyosiy filologik yo‘nalishda bir qncha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Tadqiqotlarni o‘rganib, tahlil qilish jarayonida Gyote asarlarining o‘zbek tiliga bilvosita va bevosita tarjimalarida adekvatlik va ekvivalentlik masalasi tadqiq qilinmaganligi, ushbu muammo yuzasidan tadqiqotlar olib borish zarurati aniqlandi. Tadqiqotning bu borada bajarilgan ilmiy ilmiy ishlardan farqi ham shundan iborat.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – Gyote she‘rlarining o‘zbek tiliga tarjimalarida adekvatlik va ekvivalentlik masalalarini o‘rganishdir. Chunki, nemis va o‘zbek tillari genetik jihatdan bir-biriga qarindosh bo‘lmagan tillar hisoblanadi. Shu bois, she‘riy tarjima jarayonida adekvatlikka erishish tarjimon oldida ko‘plab muammolarni yuzaga keltiradi. Ba‘zi tadqiqotchilar esa nemis tilidan o‘zbek tiliga she‘riy tarjimada adekvatlik jarayoni mavjud emasligini ta‘kidlaydilar. Ushbu muammolarni o‘rganib, ularning yechimiga doir taklif va tavsiyalar berish, tarjimada muqobillika erishish uchun tadqiqot-maqoladaquyidagi vazifalar belgilab olindi: adekvatlik va ekvivalentlik masalalarini o‘rganilish jarayonini kuzatish, she‘riy tarjima muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilish, Gyote ijodining o‘rganilish evolyutsiyasini tadqiq qilish, Gyote she‘rlarining o‘zbek tiliga tarjimalarida

## Dilobar Abdukhalilova

PhD Student  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: dilobar.abdukhalilova@mail.ru  
ORCID iD: 0009-0008-3254-4922

### ISSUES OF ADEQUACY AND EQUIVALENCE: TRANSLATION CHALLENGES POSED BY GOETHE’S POETIC OEUVRE

#### ABSTRACT

The issues of adequacy and equivalence in translation remain a focal point for translation scholars and researchers. Goethe’s works were translated into Uzbek by numerous translators. Researchers and scholars have conducted comparative philological studies of the challenges of translating poets’ poetry into Uzbek. An examination of existing research reveals that the question of adequacy and equivalence in the direct and indirect translations of Goethe’s works into the Uzbek language has not been thoroughly investigated, warranting further research on this topic. This aspect distinguishes the present study from other studies in the field.

This study investigated the adequacy and equivalence of translations of Goethe’s poetry into Uzbek. Considering the genetic dissimilarity between German and Uzbek, achieving adequacy in poetic translation poses a significant challenge for translators. Some scholars argue that the adequacy of the poetic translation from German to Uzbek is unattainable. To address these issues and propose solutions, the research tasks include observing the study process of adequacy and equivalence issues, analyzing research on poetic translation problems, examining Goethe’s work through the evolution of research, and investigating the adequacy and equivalence of translations of Goethe’s poetry into Uzbek.

This study employed a comparative method to analyze the research and scientific literature in three directions, and the results are summarized and analyzed. Descriptive and comparative analytical

adekvatlik va ekvivalentlik masalasini maxsus o'rganibchiqish.

Maqolada mavzu yuzasidan bajarilgan tadqiqot ishlari va ilmiy adabiyotlarni uch yo'nalishda qiyoslash metodidan foydalanildi, natijalarni umumiyashtirilib tahlil qilindi. Jumladan, mazkur masalaga munosabatni hamda adabiyotlarni o'rganishda, ilmiy manbalar tahlilida deskriptiv, qiyosiytahlil metodlaridan foydalanildi. Gyote she'rlarining tarjimalari lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, erishilgan natijalarga umumiy xulosalar berildi. Shundan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, she'riy asarlar tarjimasini adekvatlik va ekvivalentlik muammosi tarjimashunoslikdagi dolzarb muammolardan biridir.

**Kalit so'zlar:** ekvivalentlik, badiiy asar, adekvat tarjima, taglama tarjima, sinxron tarjima, badiiy asar tili, she'riy tarjima, tadqiqot, lingvopoetik tahlil, mazmun.

## KIRISH

Adabiy aloqalarning eng ko'p rivojlangan tarmog'i bu millatlar va tillararo tarjimalardir. Turli adabiy turlar (nasr, nazm, drama, folklor) ichida, ayniqsa, she'riy asarlar tarjimalarida adekvatlik va ekvivalentlikka erishish tarjima amaliyotining bugungi kundagi eng muammoli masalalaridan biri hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham tarjimashunoslik sohasida she'riy tarjimaning ahamiyati salmoqli, bo'lajak tarjimonlarning ijod jarayonida adekvat tarjimaga erishishi kitobxonning asar mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglab yetishi uchun xizmat qiladi. Chunki, nasriy tarjimalarda adekvatlik va ekvivalentlik tarjimaning mazmun planida amalga oshirilsa, she'riy asarlar tarjimasida mazmun va ma'no bilan birga shakliy poetik birliklar adekvatligi va ekvivalentligi masalasi mutarjim oldida ko'ndalang turgan o'ta muhim masala hisoblanadi.

Yozishni bilgan har qanday inson yozuvchi bo'la olmaganidek, ikki tilni bilgan har qanday inson ham tarjimon bo'la olmaydi. Tarjimonlik faoliyati mutarjimdan nafaqat ikki tilni bilish va ijodkorlikni, balki tarjima nazariyasi va qoidalarini ham bilishni talab qiladi. Ushbu qoidalarni bilmaslik tarjimada adekvatlik darajasining pasayishi va ekvivalent tanlash bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, bu holat she'riy tarjimada o'z aksini topadi. She'riy tarjima bilan shug'ullanayotgan mutarjim nafaqat tarjimon, balki shoirona iste'dodga ega ham bo'lishi kerak. Shu boisdan, she'r tarjima qilayotgan tilbilgichlarga nisbatan shoir-tarjimon degan jumla ishlatiladi.

Adekvatlik va ekvivalentlik tushunchasi ko'plab olimlar tomonidan bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan masalalar hisoblanadi, chunki aksariyat olimlar ushbu tushunchalarni aynan bir xil ma'noni anglatadigan sinonim tushunchalar

deb hisoblaydi. Ba'zi izlanuvchilar esa ushbu tushunchalar ma'no jihatdan tarjimashunoslikning ikki omilini anglatadigan ikki xil tushunchalar deya ta'rif berishadi.

Tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik muammosi nafaqat o'zbek, balki jahon tarjimashunosligida ham dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Tarjimashunoslikdagi *ekvivalent* tushunchasi XIX asrning 60-yillarida fransuz tilshunosligi bilan bog'liq tushuncha sifatida qabul qilingan. Bu termin rus tarjimashunosligiga XX asr o'rtalarida A.D. Shveytser tomonidan kiritilgan bo'lib, bir muncha murakkab termin sifatida qaraladi [Arifova, 2023; 16].

Tarjimashunoslar hamda tilshunoslarning ekvivalentlik masalasi haqida bildirgan qarashlari turlicha. Ayrim tarjimashunos olimlar nazariyasiga ko'ra, tarjima qilinayotgan til qoidalariga butkul bo'ysungan holda asosiy semantikani berish muqobil tarjima bo'lib, bu maqbul holat ekanligi ta'kidlanadi. Qisqa qilib aytganda, ekvivalent tenglik bo'lib, unda bir tomondan, umuman o'xshamaslik nazarda tutilsa, ikkinchidan, ekvivalent almashtirishdir [Fatxutdinova, 2021; 142].

Ekvivalent – (*lot. aequivalens; rus. равноценное, равнозначное, равносильное*; o'zb. *teng baholi, teng qiymatli, teng kuchli*) tarjima va asliyat tilida matnsiz ham, semantik ma'nolarni bir-biriga hamohang va biri ikkinchisining o'rnini qoplay oladigan maqol, matal va idiomalarni “ekvivalent birikma” deb qabul qilinadi [Sodiqov & Abdurahmonova, 2015; 24].

ST (source translation – asl nusxa matni) va TT (target translation – tarjima matni) o'rtasidagi o'xshashlik darajasini aniqlovchi tarjimadagi semantik ekvivalentlikning muammolari haqida ma'lumotga ega bo'lish muhimdir. Agar biz TT ni ST bilan qiyoslaganimizda ikki matn o'rtasidagi semantik o'xshashlik darajasini tarjima jarayonida farq qilishni bilib olishimiz mumkin [G'afurov va boshq., 2012; 22].

Y.V. Gyote ijodini va uning she'rilarini dunyo adabiyotshunosligida o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib borayotganligi va asarlarining yangi tarjimalari e'lon qilinayotganligi mazkur mavzu yuzasidan yangi tadqiqotlar olib borilishini ko'rsatadi. Bu yo'nalishda qilinayotgan tarjimalarning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, erishilgan natijalarning ahamiyatini, yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish va bu borada turli xil tavsiyalarni keltirib o'tish ahamiyatga ega.

O'tgan asrning 20-yillaridan boshlab M.Shayxzoda, A.Cho'lpon, Oybek kabi buyuk adib va shoirlarimiz tomonidan Gyotening asarlari o'zbek tiliga o'girila boshlandi. Keyinchalik uning butun umri davomida yozilgan “Faust” tragediyasi ruslarning mashhur va istedadli tarjimoni B.Pasternak tarjimasi orqali bilvosita E.Vohidov tomonidan tarjima qilingan. Nemis tili mutaxassisi P.Usmon ushbu asarni nemis tilidan tarjima qilgan. Shoir va tarjimon S.Salimov “G'arb-u Sharq devoni”ni, taniqli tarjimon Y.Egamova epistolyar asar bo'lmish “Yosh Verterning iztiroblari” mahzun (sentimental) romanini nemis tilidan bevosita tarjima qilgan.

### **TADQIQOT METODLARI**

O'rganayotganimiz masalaga doir fikr va adabiyotlar, ilmiy manbalar va

qarashlar tahlilida deskriptiv, qiyosiy-tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot ishimizda deskriptiv metod orqali olimlarning adekvatlik va ekvivalentlikka doir fikr va mulohazalarini bayon qilish bilan shug'ullandik. Qiyosiy tahlil metodi orqali tadqiqot mavzusi yuzasidan to'plangan ilmiy adabiyotlar (jumladan, mavzu yuzasidan yozilgan dissertatsiyalar), tadqiqot ishlari, olimlarning mavzuga doir fikr va mulohazalari, Gyotening "Der König Thule" va "Legende" she'rlari, "G'arb-u Sharq devoni"ning birinchi kitobi "Mug'anniynoma"dagi "Hijrat" she'rining birinchi bandi va ularning o'zbek tilidagi tarjimasi qiyosiy aspektida lingvopoetik tahlil qilindi.

Mavzuga doir ilmiy adabiyot va tadqiqot ishlarini o'rganish asnosida she'riy tarjimada adekvatlik ekvivalentlik muammolarini bir qancha yo'nalishlarda tadqiq etilganligi aniqlandi. Kuzatayotganimiz muammoga doir ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarni ularning xususiyat va xarakteridan kelib chiqqan holda bir nechta guruhlariga bo'lib o'rgandik:

*Birinchi yo'nalish* – tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik mavzusiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy adabiyotlar: G.K. Odilova "Ingliz va o'zbek mumtoz she'riyati tarjimalarida adekvatlik muammolari" deb nomlangan tadqiqot ishida she'riyatda, aynan Navoiy she'rlarining ingliz tiliga va Shekspir she'rlarining o'zbek tiliga tarjimasida adekvatlik masalalariga urg'u bergan. Ilmiy ishda g'azal tarjimasidagi muammolar va tarjimada asliyat ruhiyatni qaytadan aks ettirish masalalari ko'rib chilgan. Bilvosita va bevosita tarjimaning farqi, taglama tarjimada tarjimonlar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan muammolar, tarjimaning taraqqiyot bosqichlari, she'r tarjimasidagi qiyinchiliklar masalasini o'rta tashlaydi. Tarjimaning har qanday til uchun eng mashaqqatli hisoblangan, shuningdek, eng nozik bo'lgan turi bu she'riy tarjima hisoblanadi [Odilova, 2011; 3]. X.Rabbanoqulov "O'zbekistonda tarjimashunoslik ilmining taraqqiyoti" nomli dissertatsiyasida "tarjimachilik ilmining adabiyotshunoslik yoki tilshunoslik faniga mansubligi xususida olimlar o'rtasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, ulardan ayrimlari tarjimashunoslikning tilshunoslik fani sohasiga mansub deb bilsalar, boshqa birlari uni adabiyotshunoslik sohasiga bog'liq deb hisoblaydilar" [Rabbanoqulov, 2000; 10]. Aslida, tarjimashunoslik XX asrning 40-50-yillarida tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlaridan alohida fan sifatida ajralib chiqib, shakllangan. N.N. Isamuxammedova "Badiiy matn tarjimasining stilistik adekvatligi (ingliz tilidagi asarlar va ularning rus va o'zbek tillariga tarjimalari asosida)" ishida stilistik adekvatlik masalalarini o'rganadi [Isamukhammedova, 2007]. J.Sh. Raxmatullayeva "Ko'p ma'noli fe'llarning leksik ma'nolarini tizimli-qiyosiy o'rganish (o'zbek tilidagi bormoq fe'li va unga tengdoshlari material asosida)". [Rakhmatullayeva, 1995], D.Xoshimova "Rus tilining ekvivalent bo'lmagan lug'atini o'rganish (o'zbek maktabi uchun rus tili va adabiyoti darsliklari asosida)" o'z ishida ekvivalentsiz leksika masalalarini maktab darsliklari misolida o'rganadi [Khashimova, 1993].

So'nggi o'n besh yil ichida tarjimaning nazariy muammolariga bag'ishlangan Q.Musayevning "Tarjima nazariyasi asoslari" [Musayev, 2005], A.Ilyosovning "Tarjimada asarning badiiy konsepsiyasini qayta yaratish" [Ilyosov, 2010], N.V. Vladimirovaning "XX asr o'zbek nasri taraqqiyoti va badiiy tarjima masalalari"

[Vladimirova, 2011], M.Baqoyevaning “Ingiz va Amerika adabiyotidan o‘zbek tiliga she’riy tarjima va qiyosiy she’rshunoslik muammolari” [Baqoeva, 2015], M.Xolbekovning “Jahon tarjimachiligi an’analari” [Xolbekov, 2016] nomli monografiya va risolalari chop etildi.

Bu masala rus tilshunosligida ham ko‘p bora tadqiq qilingan bo‘lib, A.P. Yeroshinning “Audiomedia matnlarida so‘z o‘yinlarini tarjima qilishda ekvivalentlik va adekvatlik” [Yeroshin, 2015] nomli ilmiy ishida, V.V. Moshkovichning “Adekvatlik va ekvivalentlik tarjima sifatini baholashning asosiy mezonlari sifatida” [Moshkovich, 2013] nomli nomzodlik ishida tarjimadagi adekvatlik va ekvivalentlikka erishishning asosiy kriteriyalarini tadqiq qilgan bo‘lsa, Y.M. Aleksandrovaning “Anekdotlarni tarjima qilish: adekvatlik va ekvivalentlik muammolari: frantsuz va rus latifalari asosida” [Aleksandrova, 2005] o‘z ilmiy tadqiqoti doirasida anekdot va yumorlar tarjimasidagi adekvatlik va ekvivalentlik masalasini o‘rganadi. D.I. Nesterov “Ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilishda modellashtirishning yetarliligi: leksik-semantik jihat: F.S. Fitsjeraldning “Tender – tun” romanining asl nusxasi va tarjimalari asosida” deb nomlangan ilmiy ishida ingliz va rus tilidagi badiiy materiallar yordamida adekvatlik va ekvivalentlik masalasini tadqiq qiladi [Nesterov, 2006]. I.N. Ivanovanning “G.U. Longfello she’riyatining stilistik xususiyatlari va ularning XIX-XX-asrlardagi rus she’riy tarjimalarida berilishi” X.U. Longfello she’riyatidagi stilistik xususiyatlar XIX va XX asr rus she’riyati tarjimalarini tadqiq qiladi [Ivanova, 2009].

*Ikkinchi yo‘nalish* – she’riy tarjima mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili. Zero, bu mavzu badiiy tarjimaning og‘riqli nuqtalaridandir. Har qanday badiiy asar shakl va mazmunning ajralmas qismidan iborat ekan, tarjimada ham bu yaxlitlikni saqlab qolish talab etiladi. Xolbuki, aksariyat tarjimonlar asosiy e‘tiborini mazmunni qayta yaratishga qaratib, shakl bilan hisoblashmaydilar. Natijada ularning tarjimalari mazmun jihatdan har qanchalik asliyatga qoyilmaqom bo‘lmasin, shakl tomondan nomuvofiq bo‘ladi [Ochilov, 2022; 290]. Taniqli olim va tarjimon I.G‘afurovning qanchadan-qancha jahon adabiyotining juda qimmatli namunalari o‘zbek tiliga ag‘darilganligi, lekin ularning tahlili yo‘qligi [G‘afurov, 2010; 3]ga oid fikrlari bejizga emas. R.Abdullayeva “Shiller va o‘zbek adabiyoti (adabiy aloqa, tarjima va adabiy ta’sir masalalari)” [Abdullayeva, 2012], D.Salimova “She’riy tarjimada badiiy niyat va poetik mahoratning qayta ifodalanishi” [Salimova, 2018], A.Sobirov “She’riyatda so‘z tartibi (hozirgi o‘zbek she’riyati misolida)” [Sobirov, 2020], D.Tajibayeva “XX asrning so‘nggi choragi o‘zbek she’riyatida poetik uslub muammolari” [Tajibayeva, 2018] kabi tadqiqot ishlarida she’riyat va she’riy tarjima tadqiqi bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan.

Shunday tadqiqotlardan yana biri M.Baqoyevaning ilmiy ishi bo‘lib, unda olima “Angliya, AQSh adabiyotidan o‘zbek tiliga she’riy tarjima va qiyosiy she’rshunoslik muammolari” deb nomlangan mavzuda tadqiqot olib boradi. Uning fikricha, she’riy asar muallifi fikrini, his-tuyg‘ularini nasrdagi singari emas, balki aynan she’riy shakl bilan bo‘g‘liq holda ifoda etadi. She’riy shakl esa mazmunni ifoda qilish imkoniyatlarini biroz cheklab qo‘yadi: ya’ni mazmun muayyan vaznda, muayyan tartibda yoritilishi kerak bo‘lib qoladi” [Baqoyeva, 2015].

Rus adabiyotshunosligida ham bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ulardan quyidagilari aynan she‘riy tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik haqida. Masalan: A.A. Gorbachevskiyning shu sohada yozilgan “She‘riy tarjimaning matn ichidagi va matndan tashqari aloqalaridagi adekvatligi” [Gorbachevskiy, 2001] nomli ilmiy ishida she‘riy tarjimaning matn ichidagi va matndan tashqari xususiyatlari adekvatligini o‘rganib chiqadi. L.P. Shamanskaya V.A. Jukovskiy va F.Shillerning ijodi orqali rus adabiyotshunosligidagi she‘riy tarjima muammolari tadqiqiga bag‘ishlangan [Shamanskaya, 2001], T.N. Yakovleva nemis va Chuvash tillaridagi she‘riy tarjima mavzusiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari [Yakovleva, 2010] tadqiq etilgan. A.A. Mishustinaning “Asliyat va tarjimaning shery obrazining strukturaviy xususiyatlari (ispan tilidagi she‘riyat asosida)” she‘riy tarjimaning shakli xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida ham tarjima san‘ati, she‘riy tarjimaning nasriy tarjimadan farqi, asliyat va tarjima tilidagi matnning mosligi, she‘riy tarjimaning badiiy xususiyatlari haqida so‘z boradi [Mishustina, 1985].

K.V. Kulemina “She‘riy matnlar tarjimalarida ekvivalentlik va adekvatlik” deb nomlangan ilmiy ishida aynan she‘riy tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik masalalarini o‘rganadi. U kuzatuvlarida tarjimashunoslik fanining hozirgi holatini tavsiflaydi va tarjima jarayonini o‘rganishga turlicha yondashuvlar haqida fikr yuritadi. Zamonaviy tarjimashunoslikda tarjima jarayonini turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqadi: lingvistik va kommunikativ, adabiy-kognitiv, psixolingvistik va sotsiosemantik va boshqalar. Biroq tarjimaga asosiy yondashuvni, madaniyatlararo muloqot akti sifatida belgilaydi [Kulemina, 2006; 18].

*Uchinchi yo‘nalish* – Y.V. Gyote asarlarini o‘rganish yuzasidan qilingan ilmiy ishlar va adabiyotlar tadqiqi. Y.V. Gyote ijodiga bo‘lgan qiziqish O‘zbekistonda tobora ortib bormoqda. Uning ko‘plab asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, o‘zbek adabiyoti oltin fondidan joy olgan. Gyote ijodi va asarlari tarjimalari ustida izlangan xalqaro doiradagi filolog olimlar (jumladan, G.Votyak, M.P. Brandes, O.Kade, K.Nord, V.Koller, K.Raysner, P.M. Tooper, A.V. Fyodorov, V.Komissarov, G.R. Gachechiladze, P.Kopanyov, A.Shveyser va boshq.) va Vatanimizning mashhur tarjimashunos olimlari (J.Sharipov, G‘.Salomov, N.Komilov, S.Ochil, R.Fayzullayeva, Sh.Ro‘ziyev, O.Allaberganov, U.Sotimov, K.Jo‘rayev, M.Xolbekov, R.Abdullayeva, Z.Sodiqov, S.Jabborov, O.Safarov, X.Raximov), tarjimon va adabiyotshunoslar Gyote ijodini va asarlarini mukammal o‘rganishgan. Yurtimizda aynan shu sohada, ya‘ni Gyote ijodi bilan bo‘g‘liq bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bularga quyidagi ilmiy ishlarni misol keltirish mumkin: A.Allaberganovning rus tilida yozilgan “She‘riy tarjimada asl nusxaning mazmun va shakl birligini takrorlash” [Allaberganov, 1982], S.Salimov maqolalari, S.Jabborovning “G‘arb-u Sharq devoni” haqida yozilgan nomzodlik dissertatsiyasi [Jabborov, 1995], S.Nazarov “Y.V. Gyote “Faust” asarining turkiy tillardagi tarjimalarida tasviriy vositalarning ifodalanishi” [Nazarov, 2021] kabi ilmiy ishlar tadqiqotida o‘rganildi.

## **NATIJALAR VA MUNOZARA**

Tarjima jarayonidagi ekvivalentsizlik va ekvivalentlilik normalariga oid

tadqiqotlarda olimlar nazariyalari turlicha [Hamidov, 2022; 78]. Bundan tashqari, ko'pgina olimlar adekvatlik va ekvivalentlik terminlarini aynan bir ma'noni ifodalovchi tilshunoslikning ikki termini sifatida qarashadi. "Der König in Thule" (Y.V. Gyote) she'rining tahlilga tortilgan uch bandining o'zbek tiliga tarjimasida ma'noviy adekvatlik mavjudligini, lekin shakl jihatdan mos tushmasligini lingvopoetik tahlil orqali ko'rishimiz mumkin:

### *Der König Thule*

*Es war ein König in Thule,  
Gar treu bis an das Grab,  
Dem sterbend seine Buhle  
Einen goldnen Becher gab.  
Es ging ihm nichts darüber,  
Er leert' ihn jeden Schmaus,  
Die Augen gingen ihm über,  
So oft er trank daraus.  
Und als er kam zu sterben,  
Zählt' er seine Städt' im Reich,  
Gönnt' alles seinen Erben,  
Den Becher nicht zugleich...*

### *Thula shohi*

*Yashagandi Thulada bir nodir shoh (qirol),  
Qabrgacha bo'lib unga odillik hamroh,  
Biroq bir kun suyuklisi o'lib qoldi,  
Shohga undan oltin qadah meros qoldi.  
Keyin unga bo'ldi muttasil pasha,  
Bazmlarda qadah bo'shatish hamesha:  
Qadahga nigohi tushsa ko'zi uchardi,  
Darhol unga sharob quyib rosa ichardi.  
Ajali tutdi uni bir kun naq gribondan  
Mol saltanatini sanadi aniq ham chandon,  
Bor-bur merosi bilan xalqni yarlaqadi,  
Lekin qadahni o'zi uchun qo'ydi, ardoqladi [Jumaniyozov, 2020; 58-59].*

O.Jumaniyozov tomonidan qilingan ushbu tarjimada ma'no to'liq mos tushgan. Birinchi banddagi tarjimaning birinchi qatorida esa **nodir** degan jumla asliyatga mavjud emas, ya'ni tarjimada so'z qo'shish holati kuzatilgan. Agar ushbu holat joiz bo'lganda edi, Gyote bu so'zni asliyatda ham ishlatgan bo'lar edi. Qolaversa ushbu bandning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qatoridagi bo'g'inlar soni 12ta. Lekin negadir birinchi qatordagi bo'g'inlar soni 11ta bo'lib qolgan. Bizningcha **Yashagandi bir paytlar Thulada bir shoh**, tarzdagi tarjima aynan asliyatga mos tushar edi. Zero **bir paytlar** so'zi ham asliyatda mavjud emas, lekin **Es war** jumlasini uchun **bir paytlar** so'zi ma'no jihatdan ham, shakl jihatdan ham mos tushadi. Qolaversa, bo'g'inlar soni

ham bir xil bo‘ladi. Uchinchi qatordagi **o‘lib goldi** jumlasini o‘rniga **vafot etdi** jumlasini qo‘llanilganda edi, she‘rning badiiyligi va ta‘sirchanligi ancha oshgan bo‘lar edi.

“Legende” she‘ri tarjimasidagi adekvatlik holatini quyidagicha lingvopoetik tahlil qilishimiz mumkin:

*In der Wüste ein heiliger Mann  
Zu seinem erstaunen tät treffen an.  
Einen ziegenfüßigen Faun, der sprach* [Goethe, 1998; 110].

*Yashar edi, cho‘lda bir befarq mulla-qavmga,  
Bir kuni u duch keldi echki oyoq favnga* [Hakim, 2008; 25].

“Lorelay” antologiyasida keltirilgan S.Hakimning ushbu tarjimasini original bilan solishtirganimizda qatorlar sonidagi farqni ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, tarjimadagi **echki oyoq favn** so‘zi notog‘ri qo‘llangan, ya‘ni **ziegenfüßigen Faun** grek mifologiyasida mavjud bo‘lgan yarim odam, yarim echki qiyofasidagi dala va o‘rmon xudosi hisoblanadi. Bu o‘rinda mazkur so‘zning izohini ham keltirib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

“G‘arbu sharq devoni” (Y.V. Gyote)ning birinchi kitobi “Mug‘anniynoma”dir. U “Hijrat” she‘ri bilan boshlangan. S.Salimov o‘g‘irgan dastlabki ikki misrani quyidagicha tahlil qildik:

*Nord und West und Süd zersplittern,  
Throne bersten, Reiche zittern.*

*Taxtlar qulab, ne taajjub,  
Xarob shimol, mag‘rib, janub.*

Tarjimada asliyatdagi birinchi qator ikkinchi qatorga tushib qolgan. Shu bois, shoir ta‘kidlamoqchi bo‘lgan fikr sezilmay qolgan. Tarjimon qo‘shgan **“taajjub”** so‘zi asliyatda mavjud emas.

Nemis she‘riyatida asosan sillabik, metrik, tonik hamda sillabo-tonik kabi she‘riy sistemalar mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida aruz, barmoq, erkin kabi she‘riy sistemalar mavjuddir.

Ekvivalent tarjima bu – badiiy matnni to‘liq aks ettirib berish va asl nusxa matnining mazmunini saqlagan holda tarjima qilishdir. Tarjimashunos olimlar A.D. Shveytser, L.Barxudarov, Y.L. Resker va V.Komissarov lingvistik tarjima nazariyasiga oid adekvat va ekvivalent tarjima haqida quyidagi fikrlarni aytadilar: “Adekvat tarjima ekvivalentlikning oliy darajasi bo‘lib, unda asliyatning janriy – stilistik talablar, barcha lisoniy va g‘ayrilisoniy (lingvistik va ekstralingvistik) omillar hisobga olingan, maksimal darajada hissiyot va asliyat ruhi saqlangan bo‘ladi. Har bir adekvat tarjima, albatta, ekvivalent bo‘ladi, ammo har bir ekvivalent tarjimani adekvat deb bo‘lmaydi”. V.N. Komissarovning fikriga ko‘ra ekvivalent – bir nutq birligi bajaradigan funksiyani bajara oladigan boshqa nutq birligidir. Ekvivalent tushunchasi – tarjimaning muhim xususiyatlarini ochib beradi va hozirgi tarjimashunoslikning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ammo A.D. Shveytser, V.Vinogradov, Y.Resker, A.O. Ivanov, N.K. Garbovskiy va boshqa olimlarning ekvivalentlikka

yondashuvlari bir-biridan sal bo'lsa-da farq qiladi [Arifova, 2023; 17].

Adekvat tarjimada asliyat matni tarjima matniga tenglashishi mazmunan, estetik va funksional jihatdan o'zgarishlarsiz qayta yaratilgan va maksimal tarzda tarjima qilingan bo'ladi. Adekvatlik tushunchasi asliyat bilan tarjima o'rtasida tenglik ishorasining qo'yilishi natijasidir, ya'ni buni shunday tushunishimiz mumkinki, tarjimada ikki matn bir-biri bilan shaklan, ham mazmunan va so'zma-so'z yaqinlikni hosil qilib, matnning pragmatik va uslubiy jihatdan aynan bir xil ko'rinishiga ega bo'ladi.

Demak, muqobil tarjima jarayonida tillar o'rtasidagi moslashuvning qulay imkoniyatini qidirib topish va tatbiq etish kerakligini ko'rsatadi. Asliyat tili bilan tarjima qilinayotgan til o'rtasidagi mavjud bo'lgan munosabatlarning teskarisi ekvivalentlik jarayonida o'zini aks ettiradi. Qolaversa, muqobillik to'g'risida aytib o'tish lozimki, agar hozirgi tarjimashunoslik haqiqatan ham o'tgan asrning o'rtalarida vujudga kelgan bo'lsa, u holda ekvivalentlik ham xuddi shu davrda paydo bo'lgan. Zero, ekvivalentlik tarjimashunoslik fanining eng asosiy kategoriyasi bo'lib xizmat qiladi.

R.Levitskiy o'zining maqolalarida ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalariga ma'nodosh tushunchalar deb ta'rif beradi [Levitskiy, 1984]. J.K. Katford esa R.Levitskiyning ekvivalent tarjimini – adekvat tarjima deb ham ishlatadi [Katford, 2004; 78]. Ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'ygan V.N. Komissarov, adekvat tarjimaning ekvivalent tarjimaga qaraganda qamrovi kengroq deb hisoblaydi. V.N. Komissarovning fikricha, ekvivalentlik til yoki nutq birligining umumiy ma'nosida namoyon bo'ladi [Komissarov, 1990; 20]. K.Reys va G.Vermer adekvatlikka shunday ta'rif beradi: "Adekvatlik pragmatik omildan kelib chiqib, maqsad sari yo'naltiradi" [Reiss & Vermeer, 2014 ] degan fikrni ilgari suradi. Olimlarning nazariyasiga ko'ra, ekvivalentlik asliyat va tarjima tilidagi matnlar o'rtasida to'liq muvofiqlikni nazarda tutadi. Aytish joizki, adekvatlikka erishish uchun to'g'ri ekvivalent tanlay olish nihoyatda muhimdir.

V.Vinogradovning fikriga ko'ra, "ekvivalentlik tarjimaning asliyatga yaqinlashuvini ta'minlovchi bir omildir xolos. Matnning asliyatga yaqinlashuv darajalari ko'plab omillarga, xususan, tarjimon mahorati, til va madaniyatlarining bir-biriga yaqinlik jihati va tarjima qilinayotgan matnning xarakteriga bog'liq" [Vinogradov, 2001; 18]. Olimning fikriga asoslanib, shuni aytishimiz mumkinki, tarjima jarayonida adekvatlikka erishish uchun avvalo to'g'ri ekvivalentni topa olishimiz muhimdir. Chunki aynan bir tildagi so'zning, so'z birikmasining yoki frazeologik birlikning tarjimasi boshqa bir tilda aynan mavjud bo'lmasligi mumkin. Bu holda tarjimondan muqobil variantini ya'ni ekvivalentini topish talab etiladi.

Adekvatlik tushunchasining ekvivalentlikka qaraganda qamrovi kattaroq. Bu haqda V.N. Komissarov quyidagicha fikr bildiradi: "ekvivalentlik deganda axborotning mazmunan, semantik, uslubiy va funksional jihatdan yaqinligi va bog'liqligini saqlab qolishi tushunilsa, adekvat tarjimada esa pragmatik muammolarni ekvivalentlikning maksimal darajasida hal qiladi, janrning uslubiy talabi va tarjimon imkoniyatidan kelib chiqib, til me'yoringing buzilishiga yo'l qo'yilmaydi" [Kravchenko, 2012].

Taniqli rus tarjimashunosi, professor L.Nelyubin adekvatlik va ekvivalentlik atamalarini o‘zi tuzgan “Tarjimashunoslik atamalarining izohli lug‘ati”ga kiritar ekan, olimlarning konsepsiyalaridan asosiy fikrlarni uyg‘unlashtirib, adekvat va ekvivalent tushunchalarning umumiy ta‘rifini bir necha mazmundagi ifodalarda keltirib o‘tadi. Ushbu ta‘riflardan birida “adekvatlik mohiyatiga ko‘ra, uch komponentga ega” deb ko‘rsatadi: Bular:

- 1) asliyat mazmunini tarjimada to‘g‘ri va aniq shakllantirish;
- 2) asliyat til birliklarining to‘g‘ri yetkazib bera olish;
- 3) tarjima qilinayotgan tilda dastlabki asliyat tilining mufassal qayta yaratilishi”dan iboratdir [G‘afurov va boshq., 2012].

Olimlar tomonidan ekvivalentlikni quyidagi turlari farqlanadi:

- qisman ekvivalentlik;
- to‘liq ekvivalentlik;
- mutlaq ekvivalentlik;
- nisbiy ekvivalentlik.

Professor Y.Retsker “qisman va to‘liq” yoki “nisbiy va mutlaq” ekvivalent turlari to‘g‘risida ma‘lumot berarkan, mutlaq va to‘liq ekvivalentlikni tarjimada so‘z ma‘nosiga to‘liq mos tushuvchi so‘zni qo‘llash deb ta‘riflaydi” [Nelyubin, 2003; 13].

She‘riy tarjimada ijodiy erkinlik faqat nisbiy va qisman ekvivalentlikda qo‘l keladi. Nemis tilidan o‘zbek tiliga she‘riy tarjimada esa mutlaq va to‘liq ekvivalentlik haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Chunki, bu ikki til genetik jihatdan bir-biriga qarindosh bo‘lmagan tillar hisoblanadi. She‘riy tarjimada har qanday yondashuv biron-bir kamchilikka ega bo‘ladi, chunki tarjimon she‘riy asarning hech bo‘lmasa bitta yoki ikkita xususiyatini saqlab qolishi uchun boshqa unsurlarni boy berishi, yo‘qotishi yoki qo‘shishi kerak bo‘ladi.

Ekvivalent va ekvivalentlik terminlari asliyat matni va tarjima matni orasidagi madaniyatlararo munosabatni bildirib kelsa, adekvat va adekvatlik atamaları tarjimada jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, ekvivalentlik nafaqat til birliklari, balki asliyat tili va tarjimadagi matnlar orasidagi munosabatni ham ko‘rsatib keladi. Matn ekvivalenti esa uning har bir elementining ekvivalent ekanligini nazarda tutmasligi mumkin, balki asliyat tilidagi matnni tarjima tilida ham ma‘no va mazmun jihatdan mos kelishini nazarda tutish mumkin [Koller, 2001; 48].

Ekvivalentlik tarjimashunoslik sohasida muhim atama hisoblanadi. Y.Albrextning fikricha, ekvivalentlik tenglikni emas, balki teng qiymatlilikni bildiradi. Tarjimashunoslikda ekvivalentlik asliyat matni va tarjima matni (tarjima) o‘rtasidagi munosabatni ifodalab keladi [Aktaş & Koçak, 2012; 20].

Demak, yuqoridagi olimlarning nazariyasiga ko‘ra, ekvivalentlik nafaqat nutq birliklari, balki matnlararo munosabatni ham o‘z ichiga oladi. U yerda matn ekvivalentligi, uning har bir segmentining ekvivalentligini nazarda tutmasligi haqida fikrlar bildirilgan. Bu nuqtayi nazar, albatta, yuqorida keltirib o‘tgan V.N. Komissarov fikriga qarama qarshi qo‘yilmoqda. Til birliklari orasidagi munosabat til tizimi konteksti nuqtayi nazaridan uning paradigmatic aloqalari inobatga olingan holda kontrastiv lingvistika o‘rganish predmetiga aylanib ketadi. L.S. Barxudarov “So‘zning

kontekstual ma'nosi va tarjima" nomli maqolasida tarjimada so'zning ekvivalenti matn bilan bo'liqligini ta'kidlab, so'zning ma'nosi lug'aviy ma'no bilan farq qilishi mumkin degan xulosaga keladi [Barkhudarov, 1975; 45]. Zero, tilshunoslikda *sinonimiya*, *bo'yoqdorlik*, *ma'no ko'chishi* kabi hodisalar va obrazli vositalar ham mavjud bo'lib, bu til birliklarini so'zma-so'z tarjima qilish har doim ham muqobil bo'lolmaydi. Semiotik bosqichlarni qamrab olgan funksional turlar ekvivalentlikni ta'minlab beradi. Agar semiotik bosqichlarni ma'lum bir qismini qamragan bo'lsa, u holda bu yerda qisman ekvivalentlik haqida gap boradi. Agarda hamma semiotik bosqichlarni qamrab olgan bo'lsa, u holda to'liq ekvivalentlik haqida gap yuritishimiz mumkin. Demak, ekvivalentlik tushunchasiga ikki matn orasidagi munosabatni ifodalaydi deb ta'rif bersak xato bo'lmaydi. Bu borada adekvatlik bilan ekvivalentlik orasidagi farq mavhumdir.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlardan ko'rinadiki, adekvat tarjima talablari shakl bilan mazmunning barcha unsurlarini asliyatga muqobil holatda qayta yaratishdan iborat. Lekin ba'zi bir tarjimashunoslar adekvat darajasidagi tarjimaga erishib bo'lmalikni ham ta'kidlaydilar. Aslida esa adekvatlik va ekvivalentlik kategoriyalari bir atama sanalishidan yoki ikkita mustaqil tushuncha sifatida izohlanishidan qat'iy nazar, ular mohiyatida asliyatga nisbatan tarjimaning mufassalligi to'liq ta'minlanishi muhim hisoblash mumkin.

Asar tarjimasi uning, ikkinchi tilga o'girmasi bo'lib qolmasdan, tarjimaviy jarayonning yangi bir xalqasi hamdir; unda shu tillararo munosabatning darajasi, adabiyotlararo muvofiqliklar va nomuvofiqliklar, ya'ni "A" tildan "B" tilga o'girishda shakllangan muayyan umumiy ko'nikmalar ham bo'y ko'rsatib turadi [Salimova, 2018; 12].

Tarjimada adekvatlikka erishish ko'p hollarda bevosita tarjimada mukammalroq bo'ladi. Chunki tarjimon asliyat ruhini his qila oladi. G.Salomovning fikricha, yaqin vaqtlar ichida bevosita roman-german tillaridan tarjima qilishga ko'chish ishi real vazifa bo'lishi qiyin. Shu boisdan, bu ishda tarjimaning boshqa vosita va imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Shunday imkoniyatlardan biri taglamalardir [Salomov, 1983; 57]. Taglamalar bilvosita til orqali tarjima jarayonining eng asosiy omillaridan biri bo'lgan. Taglama orqali qilingan tarjimada shoir va chet tilini biladigan olim ishtiroki mavjud bo'lib, chet tilini biluvchi mutarjim olim she'r yoki matnning ma'nosini chiqarib bersa, iste'dodli shoir o'sha ma'nodan yangidan she'r yaratgan. Bunday tarjima satriy tarjima deb ham yuritilgan. Bilvosita tarjimada esa tarjima mahsuli bo'lmish asarda asliyatdagi ruh har doim ham saqlanib qolavermagan.

M.Baqoyeva ushbu holatga quyidagicha fikr bildiradi: Bilvosita va bevosita tarjimalar orasidagi asosiy tafovut asliyat muallifi uslubi va tilini qayta yaratishda yaqqol namoyon bo'ladi. Rus tarjimonlari asliyat fazilatlarini qanchalik mutanosib aks ettirishga urinmasinlar, rus tarjima maktabi qanchalik kuchli bo'lmasin, baribir she'riy matn tarjimada muayyan o'zgarishlarga uchraydi. O'zbek tarjimonlari ham, she'riy tarjima jarayoniga xos o'zgartirishlarga tabiiy ravishda yo'l qo'yadilar. Ammo asliyatdan bevosita xabardor bo'lmagan tarjimonlar o'zgartirish kiritayotib, asliyat muallifi va tilini hisobga olmasliklari tufayli o'zbek tarjimasi tili va uslubi asliyatdan

katta farq qiladi [Bakaeva, 2004; 48]. Shuning uchun, tarjimondan nafaqat asliyat tili va uslubini, balki madaniyati va mamlakatshunosligini ham bilish talab etiladi. Shundagina u adekvat tarjimaga erishishi mumkin.

Original matndagi ko'pma'noli leksik yoki frazeologik birikmalar kontekst yordamida aniqlanadi. Asliyatdan qilingan tarjima – bu asliyatga 100 % adekvat tarjima bo'ladi degani emas. Tilni bilishdan tashqari har ikkala til va adabiyotga xos bilimlarga ega bo'lmay turib, matn zamiridagi ma'nolarni ilg'ash oson emas. Fon bilimlaridan bexabarlik adekvatlikka erishish yo'lidagi eng katta to'siqdir. Shuningdek, tarjimonning shoirlik istedodi ikki matnning teng darajada pragmatik ta'sir qila olish qobiliyatiga ega bo'lishiga katta imkoniyat yaratadi. Tarjimonning mamlakatshunos, tilshunos va adabiyotshunos sifatidagi bilimlari uning shoirlik iste'dodi bilan birgalikda tarjimaning adekvat chiqishiga zamin yaratadi [Odilova, 2011; 18]. Fon bilimlari bu tarjimonning ma'naviy va umumiy bilimlari hisoblanadi. Fon bilimlaridan bexabar tarjimonlarda mukammallikka erishish darajasi pasayadi. Shuningdek, tarjimonning shoirlik mahorati ham she'riy matnning tarjima tilida ta'sirchan chiqishiga imkon beradi. Tarjima jarayonida ushbu bilimlar muhim ahamiyatga ega. Tarjimon tilning tovush tizimini aniq tushunishi va unga mos keladigan tovushlarni tanlashi kerak. Bu jarayonda fon bilimlari, tarjimonning asl matndagi tovushlarni to'g'ri tushunishi va ularni tarjima tiliga moslashtirishi uchun muhimdir. Fon bilimlari, tarjimonning har bir tovush talaffuzini to'g'ri o'zlashtirishiga, so'z xaxiralarini to'plab borishiga, paronim so'zlarni farqlash, so'z birikmalari tuzish ko'nikmalarini hosil qilishiga, tayyor dialog, grammatik terminlar, murojaat shakllari, matn namunalarini puxta egallashiga yordam beradi.

Shuning bilan tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim.

She'riy tarjimada shoir-tarjimonga nafaqat ikki til bilimlari, balki she'riy estetik nafosat ham kerak. Zero, bir yurakdan chiqqan she'r boshqa bir yurakka yetib borishi uchun, tarjimonga she'riy estetika va nafosat ham kerak. Gyotening quyidagi she'rida esa aynan shu holat o'z aksini topgan.

*Und schnelle und unbegreiflich schnell  
Dreht sich umher die Erde.*

*Aql bovar etmas sur'atla zamin  
Mavhar davrasida charx urayotir [Vohidov, 2019; 14].*

Lekin E.Vohidov **“und schnelle und unbegreiflich schnell”** misrasini **“aql bovar qilmas sur'atla”** deb o'g'riganda, aynan shoirlik mahoratini namoyon qilgan. Zero, so'zma-so'z tarjimada bu misralar **“tez va aqlbovar qilmas tez”** ma'nolarini anglatadi. Tarjimon misralarni birlashtirib, umumiyashtirib tarjima qilgan.

She'riyat – ayrim nozikta'b va tarbiyali kishilarga avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan xususiy mulk emas, balki jumlayi jahonga, barcha xalqlarga xos iste'doddur [Goethe, 1811; 19]. She'riy tarjimada mutarjim tarjimaning qolgan

turlariga qaraganda ko‘proq muammolarga duch kelishi shu sohada tadqiqot ishlarini amalga oshirishini talab etadi.

She‘rni tarjima qilish mumkin emas deguvchilarni, adabiy aloqalarga, tarjimalarga dushman kishilar deb qaramaslik kerak. Bularning tashvishlarini jonbozliklarini tushunmoq darkor. Ular poeziyani juda qadrlaganliklaridan, tarjimaga haddan ziyod katta talab va mas‘uliyat bilan yondashganliklaridan shunday fikrlarni bayon etganlar [Salomov, 2023; 380].

## XULOSA

Yuqoridakeltirib o‘tilgan fikr va qarashlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarjima – xalqlararo aloqaning eng asosiy ko‘rinishi hisoblanib, asliyat tilidagi matnni tarjima tilida qayta yaratishdan iborat bo‘lgan ijodning badiiy turi sifatida talqin qilinadi. Shu jumladan, tarjima sohasida ham bir qator yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Biz ko‘rib chiqqan masala tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik masalasining o‘rganilish jarayonidir. Mazkur izlanish uch yo‘nalishda amalga oshirildi. Birinchi yo‘nalishda tarjima sohasi bilan shug‘ullangan olimlar va ularning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi. Ikkinchi yo‘nalishda she‘riy tarjima muammosi va o‘rganilish holati qiyosiy tahlil qilindi. Uchinchi yo‘nalishda O‘zbekistonda nemis shoiri, mutafakkiri va faylasufi Gyote ijodi bilan shug‘ullangan olimlar ilmiy asarlari va nazariyalari tahlil qilindi. Tadqiqotlardan quyidagicha xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Gyote she‘riyatining o‘zbekcha tarjimalarida adekvatlik va ekvivalentlik masalasini o‘rganishning asosan uch jihatiga ahamiyat berib, tahlil qilish lozim:

- tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik muammolarini o‘rganish masalasi;
- she‘riy tarjima muammolarini o‘rganish jarayoni;
- Gyote ijodining O‘zbekistonda o‘rganish xususiyatlari.

2. Tarjimonlik yo‘nalishidagi talabalarni tayyorlashda tarjimadagi adekvatlik va ekvivalentlik masalalasi bo‘yicha umumiy qarashlar va nazariyalarni mukammal o‘rganishini yo‘lga qo‘yish, til normalarini hamda fon bilimlarini mukammal bilishlarini talab etish lozim. Zero, tarjimada adekvatlikka erishish uchun nazariy jihatdan ekvivalent turlarini bilish va tarjima jarayonida uni to‘g‘ri tanlay olish muhim.

3. She‘riy asar tarjimaning eng murakkab turi bo‘lib, tarjimondan yuksak mahorat talab qiladi. Tarjimaning ushbu turida nafaqat mazmun, balki shakl ham katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, tarjimon leksik va semantik muvofiqlik ta‘minlashi, asardagi badiiy tasvirni o‘quvchiga yetkazib bera olishi, she‘riyatdagi ohang, musiqiylik, ritmni to‘la ochib berishi, madaniy-tarixiy ijtimoiy va falsafiy voqelikni tarjimada to‘liq aks ettirishi kerak. Buning uchun yozuvchilar uyushmasida “Tarjimonlar markazi” tashkil etish, tarjimaga doir tadbirlar o‘tkazish lozim.

4. Tahlillardan shuni angladikki, aksariyat olimlar adekvatlik va ekvivalentlik masalalari turlicha, deb talqin qilishadi. Ba‘zilar esa bu atamalarni aynan bir xil ma‘noni anglatuvchi ikki tushuncha deb ta‘riflashsa, yana bir toifadagi olimlar borki, ular buni tarjimashunoslikning ikki alohida tushunchasi sifatida qarashadi. Ilmiy tadqiqot ishlarida ushbu tushunchalarni bir-biridan ajratib turuvchi xususiyat ochiqroq bayon etilishi lozim.

5. Gyote ijodiyoti bitmas tuganmas badiiy xazinadir. Demak, buyuk nemis shoirining asarlarini o‘zbek kitobxonlariga to‘la yetkazish uchun adiblarimiz, adabiyotshunoslarimiz, tarjimonlar oldida ulkan ishlar turibdi. Shoir she‘rlarining o‘zbekcha tarjimalaridagi adekvatlik va ekvivalentlik masalalari hali chuqur o‘rganilishni talab qiladi. Gyote asarlari tarjimasini umumiy antologiyasini tuzish, Gyote ijodiga bag‘ishlangan tadbir va kechalar o‘tkazish, shoirning bevosita va bilvosita tarjimalari muammolarini tahlil qilish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, R. (2012). *Shiller va o‘zbek adabiyoti*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Kutubxonasi.
2. Aktaş, T., & Koçak, M. (2012). Äquivalenz, adäquatheit und akzeptabilität in der übersetzung von literarischen texten. *Journal of the Institute of Social Sciences*, 9, 17–27.
3. Aleksandrova, Ye.M. (2005). Perevod anekdotov: Problemy adekvatnosti i ekvivalentnosti: Na materiale frantsuzskikh i russkikh anekdotov. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva: Moskovskiy gosudarstvennyy universitet imeni M.V. Lomonosova.
4. Allaberganov, A. (1982). Vosproizvedeniye yedinstva sodержaniya i formy dlinnika v poeticheskom perevode. *Diss. kand. filol. nauk*. Tashkent: Akademiya nauk uzbekskoy SSR.
5. Arifova, U.A. (2023). Ekvivalenti bo‘lmagan grammatik birliklarning tilshunoslikda o‘rganilishi xususiyatlari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(21), 16–21. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-16-21>.
6. Bakaeva, M.K. (2004). Angliya va AQSH adabiyotidan o‘zbek tiliga she‘riy tarjima va qiyosiy she‘rshunoslik muammolari. *Filol. fan. nomz. diss.* Buxoro: Fayzulla Xo‘jayev nomidagi Buxoro davlat universiteti.
7. Baqoeva, M.K. (2015). *Ingliz va amerika adabiyotidan o‘zbek tiliga she‘riy tarjima va qiyosiy she‘rshunoslik muammolari*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
8. Barkhudarov, L.S. (1975). *Yazyk i perevod. Voprosy obshchey i chastnoy teorii v perevode*. Moskva: Mezhdunaródnnyye otnosheniya.
9. Fatxutdinova, I.A. (2021). Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(2), 140–149.
10. Goethe, J.W. (1811). *Dichtung und wahrheit*. Berlin: Göttliche Buchhandlung.
11. Goethe, J.W. (1998). *Gedichte*. Weimar: Reclam.
12. Gorbachevskiy, A.A. (2001). Adekvatnost’ poeticheskogo perevoda v yeye vnutritekstovyykh i vnetekstovyykh svyazyakh. *Diss. dok. filol. nauk*. Chelyabinsk: Chelyabinskiiy gosudarstvennyy pedagogicheskiiy universitet.
13. Hakim, S. (Tarj.). (2008). *Lorelay antologiyasi*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
14. Hamidov, X. (2022). *O‘zbek qissa va romanlari turk tilida*. Toshkent: “Effect-D” nashriyoti.
15. Ilyosov, B.A. (2010). *Vossozdaniye khudozhestvennoy idei proizvedeniya v perevode*. Tashkent: Izdatel’stvo «Fan».
16. Isamukhamedova, N.N. (2007). Stilisticheskaya adekvatnost’ perevoda khudozhestvennogo teksta (na materialakh proizvedeniy na angliyskom yazyke i ix perevodov na russkiiy i uzbekskiiy yazyki). *Diss. kand. filol. nauk*. Tashkent: Natsional’nyy universitet Uzbekistana imeni Mirzo Ulugbeka.
17. Ivanova, I.N. (2009). Stilisticheskiye osobennosti poezii G.U. Longfello i ikh mezh”yazykovaya peredacha v poeticheskikh russkikh perevodakh XIX–XX vv. *Diss. kand. filol. nauk*. Moskva: Moskovskiy gumanitarnyy institut imeni Ye.R. Dashkovoy.
18. Jabborov, S.Sh. (1995). Gyotening “G‘arbu Sharq devoni”. Matn. Talqin. Tarjima. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent.
19. Jumaniyazov, A. (2020). *Nemis balladalari*. Toshkent: Lesson Press.

20. Katford, Dzh.K. (2004). *Lingvisticheskaya teoriya perevoda* (per. s angl. V.D. Mazo). Moskva: Editorial URSS.
21. Khashimova, D.U. (1993). Izucheniye bezekivalentnoy leksiki russkogo yazyka (na materialakh uchebnikov po angliyskomu yazyku i literature dlya uzbekskoy shkoly). *Diss. kand. ped. nauk*. Tashkent: Tashkentskiy gosudarstvennyy universitet.
22. Koller, W. (2001). *Einführung in die Übersetzungswissenschaft*. Wiebelsheim: Quellen und Meyer.
23. Komissarov, V.N. (1990). *Teoriya perevoda: lingvisticheskiye aspekty*. Moskva: Vysshaya shkola.
24. Kravchenko, I.L. (2012). K probleme ekvivalentnosti perevoda khudozhestvennogo teksta. *Izvestiya Yuzhnogo federal'nogo universiteta. Filologicheskiye nauki*, 3, 157–162.
25. Kulemina, K.V. (2006). Ekvivalentnost' i adekvatnost' v perevodakh poeticheskikh tekstov. *Diss. kand. filol. nauk*. Pyatigorsk: Pyatigorskiy gosudarstvennyy lingvisticheskiy universitet.
26. Levitskiy, R. (1984). O printsipe funktsional'noy adekvatnosti perevoda. *Sopostavitel'noye yazykoznanie*, 9(3), 68–77.
27. Mishustina, A.A. (1985). Strukturnyye osobennosti poeticheskogo obraza originala i perevoda (na materiale ispanoyazychnoy poezii). *Diss. kand. filol. nauk*. Kiyev: Kiyevskiy gosudarstvennyy universitet imeni Tarasa Shevchenko.
28. Moshkovich, V.V. (2013). Adekvatnost' i ekvivalentnost' kak osnovnyye kriterii otsenki kachestva perevoda. *Diss. kand. filol. nauk*. Tyumen': Chelyabinskiy gosudarstvennyy pedagogicheskiy universitet.
29. Musayev, Q. (2005). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
30. Nazarov, S.X. (2021). Y.V. Gyote "Faust" asarining turkiy tillardagi tarjimalarida tasviriy vositalarning ifodalanishi. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Andijon: Andijon davlat universiteti.
31. Nelyubin, L.L. (2003). *Tolkovyy perevodovedcheskiy slovar'* (3-ye izd.). Moskva: Flinta.
32. Nesterov, D.I. (2006). Issledovaniye adekvatnosti pri perevode s angliyskogo na russkiy yazyk: leksiko-semanticheskiy aspekt: na materiale dlinnika i perevodakh romana F.S. Fitsdzheral'da "Noch' nezhna". *Diss. kand. filol. nauk*. Krasnodar: Kubanskiy gosudarstvennyy universitet.
33. Ochilov, E. (2022). *Tarjimashunoslikning nazariy masalalari*. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
34. Odilova, G.K. (2011). Ingliz va o'zbek mumtoz she'riyati tarjimalarida adekvatlik muammolari. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
35. Rabbanoqulov, X. (2000). O'zbekistonda tarjimashunoslik ilmining taraqqiyoti (60-80-yillar). *Filol. fan. nomz. diss.* Samarqand: Samarqand davlat universiteti.
36. Rakhmatullayeva, J.Sh. (1995). Sistemno-sopostavitel'noye izucheniye leksicheskikh znacheniy mnogoznachnykh glagolov (na materiale glagola idti i yego ekvivalentov v uzbekskom yazyke). *Diss. kand. filol. nauk*. Tashkent.
37. Reiss, K., & Vermeer, H.J. (2014). *Towards a general theory of translational action: Skopos theory explained*. London: Routledge.
38. Salimova, D. (2018). She'riy tarjimada badiiy niyat va poetik mahoratning qayta ifodalanishi. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Jizzax: Jizzax davlat pedagogika instituti.
39. Salomov, G'. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
40. Salomov, G'. (2023). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti.
41. Sobirov, A.K. (2020). She'riyatda so'z tartibi (hozirgi o'zbek she'riyati misolida). *Filol. fan. fals. dok. diss.* Samarqand: Samarqand davlat universiteti.
42. Sodiqov, Z., & Abdurahmonova, D. (2015). *Tarjimashunoslik terminlarining ko'ptilli lug'at-ma'lumotnomasi*. Namangan: Namangan davlat universiteti.
43. Tajibayeva, D.E. (2018). XX asrning so'nggi choragi o'zbek she'riyatida poetik uslub muammolari. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti.
44. Vinogradov, V.S. (2001). *Vvedeniye v perevodovedeniye: obshchiye i leksicheskkiye voprosy*. Moskva: Izdatel'stvo Instituta obshchego srednego obrazovaniya Rossiyskoy akademii

- obrazovaniya.
45. Vladimirova, N.V. (2011). *Razvitiye uzbekskoy prozy XX veka i voprosy khudozhestvennoy literatury*. Tashkent: Izdatel'stvo «Fan».
  46. Vohidov, E. (Tarj.). (2019). *Faust: tragediya* (Y.V. Gyote). Toshkent: "O'zbekiston" NMIU.
  47. Xolbekov, M. (2016). Zamonaviy tarjimashunoslik muammolari. "Tarjima san'ati" maqolalar to'plamida (7-k.). Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
  48. Yakovleva, T.N. (2010). Nemetskiye i chuvashskiy poeicheskiye diskursy: lingvosemanticheskiye i stilisticheskiye osobennosti perevoda. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Cheboksary: Chuvashskiy gosudarstvennyy universitet imeni I.N. Ul'yanova.
  49. Yeroshin, A.P. (2015). Ekvivalentnost' i adekvatnost' pri perevode slovesnoy igry v audiomedinykh tekstakh. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva: Moskovskiy gosudarstvennyy oblastnoy universitet.
  50. G'afurov, I. (2010-yil 19-fevral). Tarjimada aniqlik kerakmasmi?. *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, 8(4043), 3.
  51. G'afurov, I., Mo'minov, O., & Qambarov, N. (2012). *Tarjima nazariyasi*. Toshkent: "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti.
  52. Shamanskaya, L.P. (2001). V.A. Zhukovskiy i F.Shiller: Poeticheskiy perevod v dvadtsatoy russkoy literature. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva: Moskovskiy gosudarstvennyy otkrytyy pedagogicheskiy universitet.

## REFERENCES

1. Abdullayeva, R. (2012). *Schiller and Uzbek literature*. Tashkent: National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi.
2. Aktaş, T., & Koçak, M. (2012). Equivalence, adequacy and acceptability in the translation of literary texts. *Journal of the Institute of Social Sciences*, 9, 17–27.
3. Aleksandrova, Y.M. (2005). Translation of a joke: Problems of adequacy and equivalence: Based on French and Russian jokes. *Abs. diss. cand. philol. scien*. Moscow: Moscow State University named after M.V. Lomonosov.
4. Allaberganov, A. (1982). Reproduction of the unity of content and form of a long poem in poetic translation. *Diss. cand. philol. scien*. Tashkent: Academy of Sciences of the Uzbek SSR.
5. Arifova, U.A. (2023). Features of the study of non-equivalent grammatical units in linguistics. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(21), 16–21. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-16-21>.
6. Bakaeva, M.K. (2004). Problems of poetic translation from English and American literature into Uzbek and comparative poetics. *Diss. cand. philol. scien*. Bukhara: Bukhara State University named after Fayzulla Khojayev.
7. Bakaeva, M.K. (2015). *Problems of poetic translation from English and American literature into Uzbek and comparative poetics*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
8. Barkhudarov, L.S. (1975). *Language and translation. Questions of general and particular theory in translation*. Moscow: International Relations.
9. Catford, J.K. (2004). *Linguistic theory of translation* (trans. from English by V.D. Mazo). Moscow: Editorial URSS.
10. Fatkhutdinova, I.A. (2021). Means of expressing the communicative purpose of equivalence in translation. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(2), 140–149.
11. Gafurov, I. (2010, February 19). Is there no need for precision in the translation?. *Uzbekistan Literature and Art*, 8(4043), 3.
12. Gafurov, I., Mominov, O., & Kambarov, N. (2012). *Theory of translation*. Tashkent: Publishing House of 'Garden of the Thought'.
13. Goethe, J.W. (1811). *Poetry and truth*. Berlin: Divine Bookstore.
14. Goethe, J.W. (1998). *Poems*. Weimar: Reclam.

15. Gorbachevsky, A.A. (2001). Adequacy of poetic translation in the light of intra-textual and extra-textual connections. *DSc thes. philol. scien.* Chelyabinsk: Chelyabinsk State Pedagogical University.
16. Hakim, S. (Transl.). (2008). *Lorelai anthology*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
17. Hamidov, Kh. (2022). *Uzbek short stories and novels in Turkish*. Tashkent: Publishing House of 'Effect-D'.
18. Ilyosov, B.A. (2010). *Reconstruction of the artistic idea of production in translation*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
19. Isamukhamedova, N.N. (2007). Stylistic adequacy of translation of literary text (based on works in English and its translations into Russian and Uzbek languages). *Diss. cand. philol. scien.* Tashkent: National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
20. Ivanova, I.N. (2009). Stylistic features of the poetry of H.W. Longfellow and their interlingual transmission in Russian poetry translations of the XIX–XX centuries. *Diss. cand. philol. scien.* Moscow: Moscow Humanitarian Institute named after Y.R. Dashkova.
21. Jabbarov, S.Sh. (1995). Goethe's "West-Easterly Divan". Text. Interpretation. Translation. *Diss. cand. philol. scien.* Tashkent.
22. Jumaniyazov, A. (2020). *German ballads*. Tashkent: Lesson Press.
23. Khashimova, D.U. (1993). Study of non-equivalent vocabulary of the Russian language (based on textbooks on Russian language and literature for Uzbek schools). *Diss. cand. ped. scien.* Tashkent: Tashkent State University.
24. Kholbekov, M. (2016). Problems of modern translation studies. In the collection of articles on *The Art of Translation* (B. 7). Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
25. Koller, W. (2001). *Introduction to translation studies*. Wiebelsheim: Sources and Meyer.
26. Komissarov, V.N. (1990). *Translation theory: Linguistic aspects*. Moscow: Higher School.
27. Kravchenko, I.L. (2012). To the problem of equivalence of translation of a literary text. *Bulletin of the Southern Federal University. Philological sciences*, 3, 157–162.
28. Kulemina, K.V. (2006). Equivalence and adequacy in translations of poetic texts. *Diss. cand. philol. scien.* Pyatigorsk: Pyatigorsk State Linguistic University.
29. Levitsky, R. (1984). On the principle of functional adequacy of translation. *Comparative Linguistics*, 9(3), 68–77.
30. Mishustina, A.A. (1985). Structural features of the poetic image of the original and translation (based on Spanish-language poetry). *Diss. cand. philol. scien.* Kyiv: Kyiv State University named after Taras Shevchenko.
31. Moshkovich, V.V. (2013). Adequacy and equivalence as the main criteria for assessing the quality of translation. *Diss. cand. philol. scien.* Tyumen: Chelyabinsk State Pedagogical University.
32. Musayev, Q. (2005). *Fundamentals of translation theory*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
33. Nazarov, S.Kh. (2021). Representation of visual means in Turkish translations of J.W. Goethe's "Faust". *PhD thes. philol. scien.* Andijan: Andijan State University.
34. Nelyubin, L.L. (2003). *Explanatory dictionary of translation* (3rd ed.). Moscow: Flinta.
35. Nesterov, D.I. (2006). Adequacy of modeling in translation from English into Russian: lexical-semantic aspect: based on the original and translations of F.S. Fitzgerald's novel "Tender is the night". *Diss. cand. philol. scien.* Krasnodar: Kuban State University.
36. Ochilov, E. (2022). *Theoretical issues of translation studies*. Tashkent: Innovation-Ziya.
37. Odilova, G.K. (2011). Adequacy problems in translations of English and Uzbek classical poetry. *Diss. cand. philol. scien.* Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
38. Rabbanokulov, Kh. (2000). Development of the science of translation studies in Uzbekistan (60–80s). *Diss. cand. philol. scien.* Samarkand: Samarkand State University.
39. Rakhmatullaeva, J.Sh. (1995). Systemic and comparative study of lexical meanings of polysemantic verbs (based on the verb to go and its equivalents in the Uzbek language). *Diss. cand. philol. scien.* Tashkent.

40. Reiss, K., & Vermeer, H.J. (2014). *Towards a general theory of translational action: Skopos theory explained*. London: Routledge.
41. Salimova, D. (2018). Re-expression of artistic intention and poetic skill in poetic translation. *PhD thes. philol. scien*. Jizzakh: Jizzakh State Pedagogical Institute.
42. Salomov, G. (1983). *Fundamentals of translation theory*. Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
43. Salomov, G. (2023). *Selected works*. Tashkent: Publishing House of 'Literature'.
44. Shamanskaya, L.P. (2001). V.A. Zhukovsky and F.Schiller: Poetic translation in the context of Russian literature. *Abs. diss. cand. philol. scien*. Moscow: Moscow State Open Pedagogical University.
45. Sobirov, A.K. (2020). Word order in poetry (in the case of modern Uzbek poetry). *PhD thes. philol. scien*. Samarkand: Samarkand State University.
46. Sodikov, Z., & Abdurahmonova, D. (2015). *Multilingual dictionary-reference of translational terms*. Namangan: Namangan State University.
47. Tajibayeva, D.E. (2018). Problems of poetic style in Uzbek poetry of the last quarter of the 20th century. *PhD thes. philol. scien*. Fergana: Fergana State University.
48. Vinogradov, V.S. (2001). *Introduction to translation studies: General and lexical issues*. Moscow: Publishing House of the Institute of General Secondary Education of the Russian Academy of Education.
49. Vladimirova, N.V. (2011). *Development of Uzbek prose of the 20th century and issues of fiction*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
50. Vahidov, E. (Transl.). (2019). *Faust: a tragedy* (J.W. Goethe). Tashkent: 'Uzbekistan' CPH.
51. Yakovleva, T.N. (2010). German and Chuvash poetic discourses: linguosemantic and stylistic features of translation. *Abs. diss. cand. philol. scien*. Cheboksary: Chuvash State University named after I.N. Ulyanov.
52. Yeroshin, A.P. (2015). Equivalence and adequacy in the translation of wordplay in audiomedial texts. *Abs. diss. cand. philol. scien*. Moscow: Moscow State Regional University.